

## **METFORMIN VA GIPERGOMOSISTEIN:**

**Ismoilova Moxigul Yunus qizi**

### **Kirish**

2-tur qandli diabet (T2QD) bilan og‘rigan bemorlarda metformin eng ko‘p qo‘llaniladigan preparatlardan biri hisoblanadi. Uning uzoq muddatli qabul qilinishi ba’zi holatlarda vitamin B12 darajasining pasayishiga, natijada gipergomosistein darajasining ortishiga olib keladi. Bu holat yurak-qon tomir, neyropatik va kognitiv asoratlarga sabab bo‘lishi mumkin.

### **Maqsad**

Metformin terapiyasida bo’lgan T2QD bemorlarida gomosistein, vitamin B12 darajalari va ularning asoratlari bilan bog‘liqligini baholash. Gipergomosistenemianing oldini olish, metfarnin terapiyasida bo’lgan T2QD bemorlarda vitamin B12 nazorat qilish.

### **Materiallar va usullar**

Tadqiqotda 3 guruuh shakllantirildi:

- 1-guruuh: 50 nafar bemor, qandli diabet yangi aniqlangan, metformin terapiyasi endigina boshlangan.
- 2-guruuh: 50 nafar bemor, 5 yildan ortiq qandli diabet 2 tur bilan og‘rigan, 5 yil davomida metformin terapiyada bo‘lgan.
- 3-guruuh: 42 nafar bemor, 5 yildan ortiq qandli diabet 2 tur, lekin metformin emas, boshqa gipoglikemik dorilar yoki insulin oluvchi.

Bu 3 guruuh bemorlar Toshkent shahar shoyhontoxur tumani 45- Oilaviy poliklinikada ro‘yxatda turuvchi bemorlardadan tashkil qilinib, ular mumtazam nazoratga olindi. Har 6 oyda ulardan Gomosistein, vitamin B 12, koagulogramma, xolesterin ko’rsatgichlari labaratoriyada tekshirildi. Nevropatolog, Okulist, Kardiolog va Endokrinolog ko’rigidan har 6 oyda o’tishdi.

## Natijalar


Quyidagi jadvalda guruhlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan:

Ko'rsatkich	1-guruh (Yangi)	2-guruh (5 yil Metformin)	3-guruh (5 yil, metformin emas)	p-qiymat
Gomosistein ( $\mu\text{mol/l}$ )	12.8 ± 2.1	18.2 ± 4.8	14.7 ± 2.9	< 0.01
Vitamin B12 (pmol/l)	320.5 ± 105.6	145.3 ± 87.1	498.2 ± 195.3	< 0.001
Diabetik neyropatiya (%)	10%	42%	24%	< 0.05
Yurak-qon tomir asoratlari (%)	8%	36%	20%	< 0.05
Kognitiv buzilishlar (%)	6%	30%	14%	< 0.05

Izoh: Jadvalda statistik ahamiyatga ega farqlar p < 0.05 bo'yicha belgilangan.

## Grafik

Quyidagi grafikda 3 guruh o'rtaida asosiy ko'rsatkichlarning taqqoslanishi aks ettirilgan:



### Xulosa

- Metformin qabul qiluvchi T2DM bemorlarida vitamin B12 darajasini muntazam nazorat qilish lozim.
- Vitamin B12 yetishmovchiligi aniqlansa, uni qo'shimcha tarzda qabul qilish tavsiya etiladi.
- Gomosistein darajasining oshishi yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshirishi mumkin.

Metformin terapiyasi davomiyligi gomosistein va vitamin B12 darajalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 5 yildan ortiq metformin qabul qilgan bemorlarda gomosistein darajasi eng yuqori va B12 darajasi eng past bo'ldi. Bu holat neyropatiya, yurak-qon tomir va kognitiv asoratlar xavfini oshiradi. Metformin bilan davolanayotgan bemorlar gomosistein va vitamin B12 darajasi bo'yicha muntazam monitoringdan o'tishlari zarur.